

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

3-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

<i>Shaislamova Nargiza Kabilovna</i> MAMLUKAT IQTISODIYOTI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING ROLI	124-134
<i>Qo'chqarov Baxtiyor Xoshimjanovich</i> KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING AYLANMA MABLAG'LARINI SHAKLLANTIRISH VA UNDAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARI	135-147
<i>Abdimurodov Baxrom, Abdimurodov Bahodir</i> AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA XODIMLARGA HAQ TO'LANADIGAN HAR YILGI MEHNAT TA'TILINI RASMIYLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH	148-152
<i>Matkarimov Inomjon, Yuldashbayev Azizullo</i> BARQAROR RIVOJLANISH VA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH	153-158
<i>Исламмутидинова Дина Файзрахмановна</i> ТРАНСФОРМАЦИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ КОНЕВОДСТВА В УСЛОВИЯХ СОВРЕМЕННОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАНИ	159-166
<i>Ravshanov Zaxiriddin Ibragimovich</i> OVQATLANISH XIZMATLARI SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGINI RIVOJLANTIRISH BORASIDA TAVSIYALAR	167-176
<i>Джуманиязов Уббинияз Исмайл улы</i> ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ КИТАЯ	177-183
<i>To'lov Ulu'bek Toshmamatovich</i> YERLARNI BAHOLASH VA SOLIQA TORTISHNING METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH	184-193
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Xolmirzaev Xurshid Nakibillaevich,</i> IJTIMOIY-KASBIY FAOLIYAT JARAYONIDA SUN'IY INTELLEKTNING INSON SALOHİYATIGA TA'SIRI	194-200
<i>Tashanov Abduxoliq</i> QADIMGI SHARQ MANBALARIDA INSON BUZG'UNCHILIGI HAQIDAGI QARASHLAR ...	201-206
<i>Muhamedov Asror Asadovich</i> UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI YARATISHDA YUSUF XOS HOJIB FALSAFIY MEROSIDAN FOYDALANISH	207-213
<i>Жумаева Шахло Суюновна</i> ВОПРОС НРАВСТВЕННОГО СОВЕРШЕНСТВА В УЧЕНИИ АХМАДА ЯССАВИ	214-219
<i>Eshonqulov Laziz Norqobul o'g'li</i> HAJVIYLIKNING PSIXOLOGIK IJTIMOIY-MADANIY VA ESTETIK XUSUSIYATI	220-224
<i>G'ulomov Zuxriddin Baxromjon o'g'li</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA YOLG'ON AXABOROTLARNING MAZMUN-MOHİYATI VA KONSEPTUAL ASOSLARI	225-231
<i>Xaitov Lazizbek Azamatovich</i> HAKIM TERMIZIYNING FALSAFIY TA'LIMOTI	232-236

Received: 16 February 2025

Accepted: 5 March 2025

Published: 20 March 2025

Article / Original Paper

PHILOSOPHICAL TEACHING OF HAKIM TERMIZI

Xaitov Lazizbek Azamatovich,

Bukhara state university,

associate professor of the chair of “History of Islam and source studies, philosophy”,

Doctor of philosophy in philosophical

Abstract. This article analyzes the philosophical ideas expressed in the teachings of Hakim at-Termezi, a renowned scholar from the city of Termez. The system of epistemological views that formed the foundation of his spiritual heritage is examined, specifically how knowledge and education, based on cognition and learning, contributed to the formation of these teachings. Based on the philosophical analysis of Sufi works, the emergence of knowledge and its nature as light are explored.

Keywords: philosophy, gnosology, cognition, knowledge, enlightenment, wisdom, Hakimiya teaching.

HAKIM TERMIZIYNING FALSAFIY TA'LIMOTI

Xaitov Lazizbek Azamatovich

BuxDU “Islom tarixi va manbashunosligi,

falsafa kafedrası falsafa fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD), dotsent

E-mail: falsafa.phd.1991@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada Termiz diyorida yetishib chiqqan alloma Hakim at-Termiziy ta'limotidagi falsafiy g'oyalar tahlili, mutasavvif ma'naviy merosining asosini tashkil qilgan gnoseologik qarashlar tizimi ya'ni ilm- bilim, o'qish va o'rganish asosida hosil bo'lishi sharhlangan. Mutasavvif asarlarining falsafiy tahlili asosida ilmning paydo bo'lishi, ilmning nur ekanligi tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: falsafa, gnoseologiya, bilish, ilm, ma'rifat, bilim, hikmat, donishmandlik, Hakimiya ta'limoti.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I3Y2025N27>

Kirish. Jahonda ajdodlar ma'naviy merosi inson kamoloti va zamonaviy bilimlarning nazariy asosi sifatida e'tirof etilmoqda. Sharq ma'naviyati negizida shakllangan tasavvufiy meros insonparvarlik, bag'rikenglik, ruhiy ma'naviy uyg'unlik g'oyalari bilan inson qadrini ulug'lash, ma'naviy makon, intellektual salohiyatli yoshlarni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, hozirgi mafkuraviy tahdidlar keskin tus olgan davrda ajdodlarimizning, xususan Hakim Termiziy ilmiy-ma'naviy merosidagi ezgu g'oya va qarashlarni keng jamoatchilikka targ'ib etish, o'sib kelayotgan yosh avlodning sog'lom dunyoqarashini yuksaltirish, ularni umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalashda allomaning insonparvar maqsadlarga yo'naltirilgan qarashlari orqali yechim topish zarurati dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Hakim Termiziy (820-932) “Hakim ul-avliyo” (Valiylar hakimi), “Qudvat ulavliyo” (Avliyolar mayog'i), “Mashoyixi kibor” (Ulug' shayx), “Olimi usuli ad-din” (Din usuli olimi), “ash-Shayx” (Alloh ilmi bilimdoni), “al-Alloma Sayyid” (Payg'ambar avlodlari), “Muhaddis” (Hadisshunos), “az-Zohid” (Dinning targ'ibotchisi), “al-Hofiz” (Qur'onxon), “al-Imom” (Hazrati

Ali avlodlari), “al-Orif” (Allohnin tanigan), “Al-valiy” (avliyo, Allohning do’ssti), “Al-Muazzin” (Azon aytuvchi), “Xoja” (Choriyorlar avlodi), “Mufasssir” (Tafsirchi), “al-Hakim” (Ilmning ichki sirlarini biluvchi), “al-Olim”, “Tabib”, “Mintaqa tasavvufining otasi” kabi unvonlar bilan ulug’langan mutafakkirdir.

Mutassavifning to’liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali ibn al Hasan ibn Bashir al-Hakim at-Termiziy bo’lib, U Hakimiya ta’limotining asoschisidir. Hakim at-Termiziy o’z asarlarida islom tarixi, ta’limoti, tasavvuf nazariyasi, hadis ilmi, axloq-odob, turli tariqatlar haqida beqiyos mulohazalarini bayon etgan.

Tadqiqot obyekti va qo’llaniladigan metodlar. Hakim Termiziyning ilmiy-ma’naviy merosidagi falsafiy g’oyalar ayniqsa gnoseologik qarashlari tahlili asos qilib tanlab olingan. Maqolada tarixiylik, mantiqiylik, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, dialektik, germevntik tahlil, analiz va sintez kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Muhokama va natijalar. Hakim Termiziy “Kitob bayon al-ilm” (“Ilm bayonida kitob”), “Ilm al-avliyo” (“Avliyolar ilmi”) “Al-ilm”, “Kitob al-huquq” (“Huquq kitobi”) “Kitob al-hikma ilm al-botin” (“Hikmat va botin ilmlari kitobi”) “Ma’rifat ul asror” (“Ma’rifat sirlari”) kabi asarlarida ilmning nazariy asoslarini tahlil etib, bu borada mutasavviflarning ilmga bergan ta’riflari va qarashlarini tadqiq etib, o’z fikrlarini bayon etgan. Hakim Termiziy o’zining “Ma’rifat ul asror” (“Sirlar ma’rifati”) asarining yettinchi bobi, to’qqizinchi faslida ilmga quyidagicha ta’rif bergan: “Ilmning asli banda va Alloh taolo, uning buyrug’i va qaytarig’i o’rtasidagi belgi. Uning ko’rinishi solih amal. Ilmning ziddi jaholat, ya’ni nodonlikdir” [1:69].

Ta’rifdan ko’rinib turibdiki, mutasavvif ilm-solih amalda namoyon bo’lishini, qilinayotgan amal qancha solih bo’lsa ilm shuncha yuksalishini izohlagan. Zero, ilm bo’lmagan joyda, solih amallar bajarilmaganda, ilm-jaholatga ya’ni nodonlikka yetaklashini, jaholat zulmatligi, u o’z sohibini oxiri berk ko’chaga yetaklashini ta’kidlagan. Mutasavvifning yuqorida keltirilgan fikrlari bugungi kunda respublikamizda ma’naviy-ma’rifiy sohada “jaholatga qarshi ma’rifat” shiori ostida olib borilayotgan islohotlarimizga to’liq hamohangdir.

Hakim Termiziy o’zining “Masoil at-ta’bir” (“Ta’birlar masalasi”) asarida ilm haqida “Kimki bilimni saxovatidan bahra olishga sazovor bo’lsa, ul Allohga yaqin kishidir. Ilm tanholikda do’st, zero, ilm odamlarga hamisha sherikdir. U har qanday sharoitda yo’lchi yulduz, do’stlar davrasida bezak, bilim jannatga eltuvchi rahnamodir” deb hisoblaydi. [5:266].

Hakim Termiziy asoslagan Hakimiya ta’limotining shakllanishida Xoris Muhosibiy (vaf.857) qarashlarining ta’siri bo’lgan. Muhosibiy qalamiga mansub “Kitob al ilm” risolasi Hakim Termiziyning “Kitob ul bayon al-ilm” asarining yuzaga kelishida ilhom manbai bo’lib xizmat qilgan. Shundan Hakim Termiziy: “Tasavvuf-bu bilim”, “Ilm-bu nurdir”, “Nur-Haqni nohaqdan ajratadi”, “Nur-sodiq qulini iymonga yetaklaydi”, “Nur-Alloh tomonidan banda qalbiga joylashtirilgan”, “Qalblarni munavvar etuvchi narsa — Alloh nuri” deb hisoblaydi.

“Kitob al-huquq” (Huquq kitobi) asarida Hakim at-Termiziy ilmni quyidagicha izohlaydi. “Ilm bu nurdir. Insonlar Alloh taolo oldida qanchalik mas’uliyat his etsa, shunchalik ma’rifatga ega bo’ladi. Inson qalbi yovuzlikdan qanchalik tozalansa, ilm yanada mukammal bo’ladi va nur taratadi”. Mutafakkir qayerda nur bo’lsa, u joydan albatta zulmat chekinishini ta’kidlab, ilm olishga katta e’tibor berishga chaqirgan.

Alloma ilmning hayotdagi o’rnini belgilashda shu bilan cheklanib qolmaydi. Bu borada o’z fikrlarini yanada chuqurlashtirib shunday deb yozadi: “Alloh taolo, eng avvalo, ilmni

yaratgan. Ilmdan esa donishmandlik (hikmat)ni vujudga keltirgan. Donishmandlikdan bo'lsa adolat (adl) ni va haqq (haqiqat)ni paydo qilgan".

U "Masala fi-l-farq bayn al ilm va-l-fiqh" ("Ilm va fiqh o'rtasidagi farqlar masalasi") kitobida "Bilim narsalarning namoyon bo'lishi (tajallisidir)" degan xulosaga keladi. Ilm narsalar mohiyatining kashfiyoti tarzida talqin etilib, ("Ma'rifat al-ilm billoh" -"Allohni bilim bilan tanish" g'oyasi ilgari suriladi. Bunday qarash o'sha davr uchun chinakam fikriy kashshoflik, yangilanish edi. Keyingi asrlarda olimlar jumladan, Fariduddin Attor (1146-1221) ham Hakim Termiziy asos solgan hakimiya ta'limotining yo'li ilmga asoslanganligini ta'kidlagan. [6:402-412]. Bugungi zamon tadqiqotchilari alloma asarlarini, merosini o'rganar ekanlar Hakim Termiziy tanlagan yo'lni mazhab [5:5]. -yo'l, ilm yo'li deb hisoblaydilar. Bu ilm yo'li Hakimiyya nomini olganligi, uning tarafdorlari, izdoshlari shogirdlariga "Hakimlar" unvoni berilganini yoritadilar. Yangi davr sharqshunos olimlari allomaning o'n ikki nafar shogirdi haqida ma'lumot berganlar. Shulardan biri avliyolar muallimi nomini olgan Abu Bakr Varroq Termiziy bo'lsa, ikkinchisi qalblar josusi laqabiga sazovor bo'lgan Hasan ibn ali – Jurjoniyydir. [2:55]. Ular faoliyatlarini amaliyotga muridlar tarbiyalashga qaratishgan.

Hakim Termiziy "Al-Amsol Minal kitob vas sunna" asarida Olimning ilmiga amal qilmasligi va boshqalarga o'rgatmasligi masalasini tahlil qiladi.

Mutafakkir fikricha ilm o'rganib, unga amal qilmaydigan va odamlarga ham o'rgatmaydigan inson xuddi ko'p mol-dunyo berilgan kishiga o'xshaydi. U kishi berilgan shuncha dunyoni yer ostiga yashirib qo'yib, undan o'ziga ham, boshqalarga ham sarf qilmaydi. Bu boylikdan o'zi ham, boshqalar ham manfaat olmaydi. Qiyomat kuni bunday boylik o'sha kishiga balo bo'ladi.

Shuningdek, bu holatda xashak ustiga yotib olgan itga o'xshaydi. Hashak ko'p, ammo uni it o'zi ham yemaydi, uni yemoqchi bo'lgan chorvani hurib haydaydi. Ilmiga amal qilmagani, boshqalarga o'rgatmagani, o'zi ham amal qilib, jannatga yo'l olmagan, boshqalarni ham to'g'ri yo'lga yo'llamagani uchun bu ilmi ikki dunyoda ham unga manfaat bermaydi.

Hakim Termiziyning yuqorida zikr qilgan fikrlari keyingi davr olimlari merosida o'z aksini topgan. Jumladan: Abdulqodir Giyloniy (Jiyloniy 1079-1166) "Ilm misoli danak, amal esa uning mag'zidir" -deb uqtiradi. Mag'zsiz danak puch bo'lgani singari, amalsiz ilm ham hech qanday tahsinga sazovor bo'lmaydi. Ilm-hikmatdir, ilm egallashdan maqsad ham undan ezgu maqsadlarda foydalanishdir. Inson olgan ilmlarini o'z hayoti va faoliyati(praksiologiya)da namoyon etishi lozim. Zero o'rganilgan va egallangan ilm insonning to'g'ri faoliyat olib borishidagi asosiy vositalardan biridir. Inson egallagan bilimiga amal qilmasdan, o'z ilmini boshqalarga o'rgatmasdan, behuda amallarga sarflasa u hech qanday maqtovga va hurmatga loyiq bo'la olmaydi degan. [3:26].

Darhaqiqat, ilmga amal qilmaslik ko'p salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Chunki olim bo'la turib, ilmini xor qilish-yeb turgan nonini oyoq osti qilish bilan barobardir. Shunday naql bor: "Olim bo'lish oson, odam bo'lish qiyin". Bu narsa ilmiga amal qilmagan olimga nisbatan berilgan xalqning bahosidir.

Hakim Termiziy "Al-Amsol Minal kitob vas sunna" asarida ilmiga amal qiladigan, ilmini boshqalarga o'rgatadigan olimlarni ta'riflaydi. ".....Olimlar bamisoli xushbo'ylik sotadigan attordir. Uning yonidan o'tsang, xushbo'y hidni tuyasan, agar u bilan birga o'tirsang, uning atridan olasan, agar u bilan hamsuhbat bo'lsang, uning xushbo'y ta'midan bahramand bo'lasan. Uyingga ham shu holda qaytasan" deb ta'kidlaydi. [4:247]. Hakim Termiziy, olimlar hurmatga,

tahsinga sazovordir, chunki ular insonning hayoti davomida to'g'ri, ezgu maqsadlar sari faoliyat yuritishiga sababchi bo'ladilar deb hisoblaydi. Zero, olim bo'lganlar (al-ulamo)- nafsni taniganlar, ularni aldashni umid qilish uchun shaytonning bu o'rinda (quvvati) oz va xordir deb ta'kidlab, insonlarni foydali bilimlar beradigan olimlarga yaqin bo'lishga chaqirgan.

Hakim Termiziy ma'rifat ahlining ilmlari haqida fikr yuritib, bunday ilmlarni uch xil bo'ladi deb ko'rsatadi:

birinchisi: ma'rifat ahlining g'alaba vaqtida aytadigan ilmlari. Uni bilish ibrat, ishorasi esa izzatdir;

ikkinchisi: ma'rifatdan bahramandlik to'xtagan vaqtda aytadigan ilmlari. Bu eng zaif ilmdir;

uchinchisi: ma'rifatga erishgan vaqtda aytgan ilmlari bo'lib, ma'rifat ahliga ilmning avvali va oxirida yaraydi. [7:81].

Xulosa. Hakim Termiziy asarlaridagi ilm va hikmat (donishmandlik) so'zlari ma'nodosh sifatida ishlatilgan. Alloma Islom-ilm, imyon- ilm, tavhid-ilm, ma'rifat-Alloh ilmi deydi. Uning fikricha, ilm mutolaa davomida shakllansa, ma'rifat Allohdan uning bandalariga berilgan buyuk ne'matdir.

Hakim Termiziy "Navodir al usul" asarida Alloh taolo bandalarni turli toifa qilib yaratgani, ularga zarur bo'lgan ilmni bergani, ular ilm bilan Allohni tanib, Unga ibodat qilishlarini ta'kidlagan. Uning fikricha, Alloh huzuridagi ilm-dengizdir. Alloh bu dengizdan rasullarga daryo ato etadi, rasullar bu daryodan ulamolarga anhorni beradilar, ulamolar esa ommaga kichik ariqni ulashadilar. Mutafakkir dunyo iztiroblariga berilib, o'zini ojiz, notavon, xo'rlangan deb bilgan kimsalarni qattiq tanqid qilib, ".....Alloh senga ilm, aql, hidoyat berdi, sen uning taqdiriga rozi bo'l, qismatingdan nolima o'zingning yomon nafsingdan o'pkalan" deydi. Zero, Allohni tanigan banda zinhori umidsizlikka tushmaydi, taqdirdan nolimaydi, banda qismatdan emas, o'zining yomon nafsidan o'pkalashi lozim deb hisoblaydi.

Hakim Termiziy asarlari sahifalarida singdirilgan ilm haqidagi donishmandona hikmatlar va ular tashigan g'oyalar, ilgari surgan muddaolar

donolik namunolari bo'lib, insonlarni hamisha ezgulik sari da'vat etadi. Yangi O'zbekistonda Hakim Termiziy ma'naviy merosini o'rganish, mutasavvif merosi asosida yetuk mutaxassislar tayyorlash uchun barcha kerakli sharoitlar yaratilgan.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Абу Абдуллох Мухаммад ибн Али Хаким Термизий. Маърифатул асрор. (Сирлар маърифати). / Таржимон: Абдулхамид Мухаммад Турсунов. - Тошкент: Мовароуннахр, 2017.– Б.69.
2. Абу Абдуллох Мухаммад ибн али Хаким Термизий,. Мўминларнинг ибодатдаги даражалари.(Манозил ул-ибод мин ал-ибода) Таржимон Абдуқаххор Шоший. Ўзбекистон мусулмонлари идораси.-Тошкент: Movarounnahr,2017.-Б.55.
3. Абдулқодир Жийлоний. Раббонийликни англаш. 1-китоб.-Т., 2005. 26-бет
4. Орифлар тасаллиси. Хаким Термизий асарларидан сайланма. / Таржимон: И.Усмонов ва бошқ.; - Тошкент: Movarounnahr, 2018.– Б. 247.
6. С.Турсунов. Б. Муртазоев. Термизийларнинг илмий тафаккури. Т. "Ўзбекистон" 2016. Б.266.
7. Фаридуддин Аттор, Тазкират ул-авлиё. - Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2013. – Б.402-412.

8. Xaitov Lazizbek Azamatovich HAKIM TERMIZIY MA'NAVIY MEROSINING INSON KAMOLOTIDAGI O'RNI /Monografiya.-Buxoro: "BUKHARA HAMD PRINT" nashriyoti , 2023. 148 - b.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).